



SOHIBQIRON SAROYIDA XOTIN-QIZLARNING SIYOSIY VA IJTIMOIY MAQOMI

Mahmudov Bekzod Eshqobil o'g'li

Qarshi. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti. talaba.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21696588>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 28-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 30-iyul 2026 yil

KEY WORDS

Amir Temur, Temuriylar, Saroymulkxonim, Bibixonim, xotin-qizlar, siyosiy maqom, ijtimoiy maqom, saroy ayollari, diplomatiya, xayriya.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Amir Temur davrida saroy ayollarining siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Xususan, Saroymulkxonim (Bibixonim), Gavharshodbegim kabi saroy ayollarining davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlar, xayriya ishlari hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatdagi ishtiroki yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davrida ayollarning jamiyatdagi maqomi tarixiy manbalar asosida o'rganiladi.

Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda hukmdorlar, amirlar va harbiy sarkardalar faoliyati keng yoritilgan bo'lsa-da, saroy ayollarining jamiyatdagi o'rni masalasi nisbatan kam tadqiq etilgan. Holbuki, o'sha davr manbalari saroy ayollari davlat va jamiyat hayotida muhim mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi. Ular sulolaviy siyosat, diplomatik aloqalar, bunyodkorlik ishlari va ma'rifiy faoliyatda sezilarli rol o'ynaganlar.

Amir Temur ayollarning sha'nini yerga o'rish, ularni behurmat qilinishiga aslo yo'l qo'ymagan. Musulmo hukmdorining oldida ahli ojizlarni haqorat qilish haqida esa gap bo'lishi mumkin emas edi.

„Ayollarimiz avlodlarimizni tarbiyalashadi, shajaramizni davom ettiradilar, bu tafakkurga sig'mas mojiza“, - deya ta'kidlagan Amir Temur¹.

Amir Temur davlati idoralarini mustahkamlashda va uni boshqarishda, obodonlashtirish, temuriy shahzodalarni tarbiyalashda "uning xotinlardan eng muqaddami va barkamoli Katta Malika (Saroy Mulk xonim)" Bibixonimning xizmatlari cheksiz bo'lgan. Sohibqiron bu oqila ayolga nabiralari, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Halil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzolari tarbiyalash vazifasini ishonib topshirgan. U o'zining maftunkor latofati, yorga sadoqati, dono va hozirjanoblighi, cheksiz insoniy fazilatlariga ega bo'lganligi bilan boshqa malikalardan ajralib turgan, shuning uchun ham Saroymulkxonim Amir Temurning samimiy hurmati, sadoqatiga sazovor bo'lgan.

Bibixonimning asl ismi Saroymulkxonim bo'lib, u Chig'atoy ulusiga mansub edi. Saroymulkxonim 1341 yilda Qarshi shahrida tug'ilgan va mo'g'ul xonlaridan biri bo'lgan Qozonxonning qizi edi. 1355 yilda u dastlab Movarounnahr hukmdori Amir Husayn Musallabga turmushga chiqadi. 1370 yilda esa buyuk sarkarda Amir Temurga nikohlanadi. Amir Temur

¹ Амир Темур хазинаси [Matn] / Т. Хайит. - Тошкент: «BAYOZ», 2018. - 95 б.

Saroymulkxonimga uylanganidan keyin, "ko'ragon" unvoniga sazovor bo'ladi. "Ko'ragon" iborasi mo'g'ulcha so'z bo'lib, "kuyov" degan ma'noni anglatadi. Sababi, Saroymulkxonim mo'g'ul xonlarining qizi bo'lganligi uchun Amir Temur mo'g'ul xoni kuyovi hisoblanib, "Amir Temur Ko'ragon" nomini olgan edi².

Saroymulkxonim insonparvar, Vatanni sevuvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshi xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan faol qatnashgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berar va ilm talabchilarga homiylik qilardi. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroymulkxonim ko'pincha unga hamrohlik qilgan. Tarixiy manbalar Saroymulkxonimni o'ta ziyrak va tadbirkor shaxs sifatida tavsiflaydi, u saltanatni boshqarishda yuzaga kelgan ayrim muammolarni hal etishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroymulkxonimga oshkora bo'ysunmasa-da, uning dono maslahatlariga ehtiyoj sezgan.

Ispaniyalik elchi Rui Gonsales de Klavixo o'zining "Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asarida Saroymulkxonimni "Ka'no xonim" — ya'ni, "katta xonim" deb ataydi. Amir Temur saroyida joriy etilgan tartibga ko'ra, chet el elchilarini qabul qilish marosimida hukmdor bilan birga malikalar ham qatnashgan. 1404-yil 17-oktabrda Saroymulkxonim katta bazm uyushtiradi. Bu bazmga elchilar ham taklif etiladi. Saroymulkxonim bazmni o'ziga qarashli eng hashamatli saroparda chodirida tashkil qiladi. Chodir oq va qora rang matolardan tikilgan, to'q qizil gilamlar bilan bezatilgan. Bazmga ispan elchisi Klavixo ham taklif etilgan bo'lib, u Amir Temur bazmlaridagi ziyofatlarning to'kin-sochinligi va did bilan jihozlanganligini bayon qiladi³.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroymulkxonim ko'pincha birga bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, o'ta ziyrak va tadbirkor Saroymulkxonim saltanat ishlarini boshqarishda paydo bo'lgan muammolarni o'zining oqilona maslahatlari bilan yechishda faol ishtirok etgan. Amir Temur Saroymulkxonimga oshkora bo'ysunmasa-da, uning dono maslahatlariga muhtoj bo'lgan⁴.

Temuriylar o'z malikalarga yuksak baho berish orqali namoyondir. Temuriylar davrida malikalarga e'tibor yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Birgina Amir Temurning xotini Saroymulkxonim emas balki bunday ma'rifatparvarlar, ilm homiylari juda ko'pdir. aytib o'tar ekanmiz bu malikalar orasida Gavharshodbegimni aytib o'tishimiz lozim.

Gavharshodbegim buyuk markazlashgan davlat asoschisi Sohibqiron Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzoning katta rafiqasi edi. U Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi bo'lib, Chig'atoy ulusida bu avlod yuksak e'tiborga sazovor bo'lgan⁵. Sharafiddin Ali Yazdiy ta'kidlashicha, G'iyosiddin tarxon o'z vaqtida Chingizxon tomonidan tarxonlik maqomi berilgan Qishliqning avlodidir. Shu ma'noda chingiziylar hukmronligiga oid mo'tabar tarixiy asarlardagi ba'zi ma'lumotlar diqqatni tortmay qolmaydi. Boshqa qabilalarni bo'ysundirish ishini endigina boshlagan kezlari – 1202-1203 yili Chingizxon va keroyit qabilasi sardori O'ngxon o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Raqibini erta saharda yo'q qilish rejasini tuzgan O'ngxon qarorgohidan Chingizxon huzuriga qochib o'tgan ikki o'spirin bo'lajak hujum

² "Globallashuv davrida filologiya fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2024-yil 15 – 16-noyabr. – Qarshi, 2024. – 705 bet.

³ Rui Gonsales de Klavixo o'zining "Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asari.

⁴ Turg'un Fayziyev: " Temuriy Malikalar ". 6- bet.

⁵ Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/3 (138), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2026 y. – 143 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

haqida uni boxabar etadi. Mazkur xabar obdon qo'l kelib, Chingizxon raqibini yengadi. Ikki o'spirinni esa tarxonlik maqomi bilan siylaydi. Ulardan birining nomi Qishlik, ikkinchisi esa Boda bo'lgan. Demak, G'iyosiddin tarxon shajarasi mazkur Qishlik tarxonga borib taqaladi⁶.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, "Gavharshod begim muborak soyali va baland martabali, shiori pokizalik va iffat bardasiga o'ralgan, xatti-harakati odilona va qilmishlari pok, oliyhimmat va ulug' orzuli, iffat pardasida Robia sifatlik va pokizalik yopinchig'ida Zubayda yanglig' bir malika edi. U shuhratli bonudan tiriklikda ko'p xayrli yodgorliklar qoldi⁷.

Hofiz Abru uni quyidagicha ta'riflaydi: "U baxtning ibtidosi edi, nufuzli ayollarning yetakchisi, homiysi bo'lgan xayriya ishlarining oxiri yo'q dinning, islom va musulmonlarning sofligi, kambag'allarning panohi deb atalgan jumlar keltirilgan. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo'lida tinmay g'amxo'rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma'rifiy hayot birinchi o'rinda bo'lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo'lib, ba'zilar g'azal ham bitgan⁸. Ayniqsa, Gavharshodbegim o'z aql-idroki, tadbirkorligi, husnu latofati bilan Shohruh Mirzoning ishonchini qozongan. Ayrim paytlarda u devon va saltanatni boshqarishda Gavharshodbegimning maslahatiga tayangan. Hatto, devon ishlarini boshqarish, lavozimga tayinlash, in'om berish, aybdorlarni jazolash huquqiga ham ega bo'lgan. Saroy ayollari ko'pincha sulolaviy nikohlar orqali siyosiy ittifoqlarni mustahkamlash vazifasini ham bajarganlar. O'rta asr Sharq davlatlarida bo'lgani kabi Temuriylar davlatida ham nikoh diplomatiyaning muhim vositasi hisoblangan. Shu jihatdan saroy ayollari davlatlararo munosabatlarning muhim subyektlaridan biri sifatida maydonga chiqqan.

Manbalarga ko'ra Temuriylar davrida xotin-qizlar uchun alohida maktablar ochilgan. Bu yerda otinbibilar o'qituvchilik qilganlar. Oddiy xalqning qizlariga ta'lim beradigan maktablar ham mavjud bo'lib, ular mahallalarda tashkil etilgan. Maxsus ta'lim olgan otinbibilar bu maktablarda qizlarga saboq berganlar. Lekin, biz o'sha davr maktab ta'limi mazmunini afsuski yaxshi bilmaymiz. Amir Temur nafaqat saroy malikalari balki, raiyatning oqila ahli ayollarining fikrlarini inobatga olganligiga ham tarix guvohlik beradi: "Qarshi qal'asin zabt etolmay, dilga kadar tugib qaytmoqda edim. Qizil daryodan kechib, bir qishloqqa qo'ndik. Men bir kulbani ixtiyor etdim. Unda ushoqqina kampir yashar, tirikchiligi yolg'iz echkidan erkan. Men momodan biror ovqat qilib bermoqni o'tindim. Ko'p o'tmay og'och tovoqqa suzilgan atala dasturxonda paydo bo'ldi. Och erdim. Og'och qoshiqni tovoqdagi atalaga mo'ldirib, yutoqib yegan edim, og'zi-tilim kuygandan-kuydi. Shunda momo dedi: – Sen-da Amir Temurga o'xshash shoshqoloqlardan ekansan. – Temurbekning shoshqoloqligini qaydin bildingiz, momo, – so'radim.– Eshitishimcha, Amir Temur Qarshi qal'asiga tik borib, uni ololmabdi. Magarki, avval qal'a atrofidagi kichik-kichik qishloq va mahallalarni egallab, kuch to'plab, so'ng qal'aga hujum qilmoq lozim edi. U esa bir yo'la beklikni olmoqchi bo'ldi-yu, shashdi sindi... Shunga o'xshash sen ham shoshding va og'zingni kuydirding. Atalani avval tovoqning girdidan olib, sekin-sekin yalab ko'radi, sovuganini bilgach, so'ngra qoshiqni to'ldirib yeydi-da... Shunda xatoimni anglaganday bo'ldim. Va dedim:– Darxon momo, o'shal shoshgich Amir Temur mendirman. Tanbehingizni bosh ustiga oldim. Tilang tilagingizni... Darxon momo odamlar uchun ariq qazib

⁶ Azamat Ziyov. O'zbekayollari tarix sahnasida. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti, -2002. 32 bet.

⁷ Abdurazzoq Samarqandiy. Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn. – Toshkent: Fan, 2000.

⁸ Hofiz Abru. Zubdat ut-tavorix. – Tehron, 1964.

suv chiqarib berishni so'radi. Oradan ko'p o'tmay Tanqos daryosidan ariq qazib, suv chiqarib berdim." Yuqoridagi fikrlardan shuni ko'rishimiz mumkinki o'sha davr ayollarining sadoqatli, oqila va ma'naviyatli bo'lganligi sababli ularga bo'lgan munosabat ham yuksak bo'lgan. Ayollar tomonidan tashkil etilgan vaqflar masjid, madrasa, karvonsaroy va boshqa ijtimoiy muassasalarning faoliyatini qo'llab-quvvatlagan. Bu esa xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini yanada mustahkamlagan.

Shuningdek, saroy ayollari kambag'allar, yetimlar va muhtojlarga yordam berish ishlarida faol qatnashganlar. Xayriya faoliyati o'sha davr jamiyatida ayollarning hurmat va e'tibor qozonishida muhim omillardan biri bo'lgan.

Bu holat ayollarning davlatning tashqi siyosiy holatini shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatadi. O'rta asr Sharq davlatlari tarixida bunday mavqe har doim ham uchramaganligi sababli Temuriylar saroyidagi ayollar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur saroyida xotin-qizlar jamiyatning faol va nufuzli qatlamlaridan biri bo'lgan. Ular siyosiy hayotda bilvosita ishtirok etib, sulolaviy siyosat va diplomatik aloqalarga ta'sir ko'rsatganlar. Bu holat Amir Temur davlati ijtimoiy-siyosiy tizimining o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амир Темур хазинаси [Matn] / Т. Хайит. - Тошкент: «BAYOZ», 2018. - 95 б.
2. "Globalashuv davrida filologiya fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2024-yil 15 - 16-noyabr. - Qarshi, 2024. - 705 bet.
3. Rui Gonsales de Klavixo o'zining "Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asari.
4. Turg'un Fayziyev: "Temuriy Malikalar". 6- bet.
5. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/3 (138), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2026 y. - 143 b. - Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>.
6. Azamat Ziyov. O'zbekayollari tarix sahnasida. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti, -2002. 32 bet.
7. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn. - Toshkent: Fan, 2000.
8. Hofiz Abru. Zubdat ut-tavorix. - Tehron, 1964.